

## JAHONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH JORIY HOLATI VA MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATDOSHLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY NAZORAT USULLARIDAN FOYDALANISH TENDENSIYALARI

### Davronov Abror O'ktam o'g'li

Xorijiy davlatlar tajribalarini o'rghanishni qo'shni mamlakat sifatida Qozog'iston Respublikasidan boshlash maqsadga muvofiq.

Qozog'iston Respublikasida bugungi kunda xalqaro tajribada uchraydigan alohida moliyaviy inspeksiya funksiyasi mavjud emas. Qozog'iston qonunchiligiga ko'ra moliyaviy nazorat – davlat auditı davomida aniqlangan huquqbazarliklarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi.

Qozog'iston Respublikasida taftish komissiyalari mavjud bo'lib, ular o'zlarining moliyaviy inspeksiyaga o'xshash nazorat funksiyalarini shahar va viloyat darajasida amalga oshiradilar. Ushbu komissiyalar Hisob qo'mitasiga hisobdor bo'lib, moliyaviy nazorat funksiyasini bajaruvchi alohida tuzilma hisoblanmaydi.

Taftish komissiyasi mahalliy budjetning jamlanma moliyaviy hisobotining samaradorligi va muvofiqlikligi auditı, budjet dasturlari boshqaruvchilari va davlat organlarining moliyaviy hisobotlari auditini amalga oshiradi. Uning asosiy vazifasi moliya intizomini mustahkamlash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida mahalliy budget mablag'lari, davlat aktivlari va sub'ektlari mablag'larini boshqarish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishdan iborat.

Qozog'iston Respublikasida tashqi audit Hisob qo'mitasi tomonidan respublika budjetining ijrosini tashqi davlat auditı va moliyaviy nazoratni amalga oshirish orqali ta'minlanadi.

Shuningdek, Hisob qo'mitasi quyidagi funksiyalarni ham bajaradi:

- «taftish komissiyalari to'g'risidagi namunaviy nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash;
- tashqi davlat auditı va moliyaviy nazoratning umumiy va protsessual standartlarini, uni amalga oshirish qoidalarini, shu jumladan, davlat auditı natijasida qabul qilingan hujjatlar shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash;
- davlat auditori malaka sertifikatiga ega bo'lgan shaxslar reestrini yuritish qoidalarini ishlab chiqish va tasdiqlash».

Qozog'iston amaliyotida davlat auditı va moliyaviy nazorat bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasi mavjud va u Hisob qo'mitasi tomonidan yuritiladi. Ma'lumotlar bazasi davlat moliyaviy nazorati tizimini boshqaruv jarayonlarini osonlashtirish, davlat auditı natijalari o'zaro tan olinishini ta'minlash va ular faoliyatida takroriylikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Qozog'iston Respublikasi davlat sektorida ichki auditni joriy etish 2013 yilda «Qozog'iston Respublikasida davlat ichki auditini amalga oshirish konsepsiysi» bilan boshlangan.

Qozog‘iston Respublikasining «Davlat auditi va moliyaviy nazorati to‘g‘risida»gi qonunida davlat sektorida ichki audit quyidagi organlar tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan:

- Qozog‘iston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat ichki auditi qo‘mitasi;

- 14 ta viloyat va 3 ta yirik shaharda (Ostona, Olmaota va Chimkent) tashkil etilgan davlat ichki auditи hududiy boshqarmalari;

- markaziy davlat organlaridagi ichki audit xizmatlari.

Davlat ichki audit qo‘mitasi, shuningdek, «davlat auditi ob’ektlari tomonidan Qozog‘iston Respublikasi davlat rejalashtirish tizimining hujjatlarda nazarda tutilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va yakuniy natijalarga erishilishini, moliyaviy va boshqaruv ma’lumotlarining ishonchlilikini, davlat organlari faoliyatini tashkil etishning ichki nazorati jarayonlari, ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlari sifati va davlat aktivlarining saqlanishini nazorat qilish samaradorligini tahlil qiladi, baholaydi va tekshiradi».

Qozog‘iston Respublikasida ichki auditorlarni sertifikatlash amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan.

Hisob qo‘mitasi tomonidan Moliya vazirligi bilan birgalikda sertifikatlashtirish jarayonini tartibga soluvchi bir qator qonunchilik hujjatlari ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiq etilgan.

Xorijiy davlatlar tajribalarini o‘rganishni davom ettirishni o‘z tizimini Yevropa Ittifoqi talablari asosida qayta qurayotgan Gruziya davlati bilan davom ettiramiz.

Gruziyada bugungi kunda moliyaviy inspeksiya funksiyasi mavjud bo‘lib, nomarkazlashgan tartibda tashkil etilgan. Shunday bo‘lsada huquqni muhofaza qiluvchi vazirliklarda (Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Adliya vazirligida) alohida boshqarmalar sifatida moliyaiy inspeksiya funksiyasi mavjud bo‘lsa, boshqa vazirlikda ichki audit departamenti tarkibida alohida bo‘linma sifatida tashkil etilgan.

Gruziyada Davlat auditi ofisi davlat tashqi auditi va iqtisodiy nazoratining oliy organi bo‘lib, auditni amalga oshiradi va operatsion, moliyaviy, funksional va tashkiliy mustaqillikka ega. Gruziya Davlat audit ofisi faoliyatining asosini Gruziya Konstitutsiyasi, Davlat auditi xizmati to‘g‘risidagi organik qonun, audit tamoyillari to‘g‘risidagi Lima deklaratsiyasi va Meksikaning oliy audit organlari mustaqilligi to‘g‘risidagi deklaratsiyasi tashkil etadi. Gruziya davlat auditi ofisining asosiy maqsadi «davlat mablag‘lari va boshqa moddiy boyliklardan qonuniy, natijador va samarali foydalanishga ko‘maklashish, shuningdek, avtonom respublikalar va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining milliy boyligi va mulkini himoya qilishga ko‘maklashishdir».

Davlat auditi xizmati to‘g‘risidagi qonunga muvofiq Davlat auditi ofisi moliyaviy audit, muvofiqlik auditi hamda samaradorlik auditini amalga oshiradi.

Gruziyada 2011 yilning 9 dekabrida «Davlat ichki moliyaviy nazorati to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilinishi bilan ichki auditni rivojlantirish boshlandi.

Mazkur qonunga qadar 16 vazirlikdan 12 tasida avvalgi moliyaviy inspeksiyalar nomini o‘zgartirish orqali ichki auditga aylantirildi. Ushbu qonun bilan muvofiqlashtirish markazi vakolatlarini kengaytirish va moliyaviy boshqaruv va nazorat tizimini joriy etish, shuningdek, «tekshirish» funksiyasi chiqarib tashlandi. «Davlat ichki moliyaviy nazorati

to‘g‘risida»gi mazkur yangi qonun Yevropa Ittifoqi Komissiyasining sharhlovchilari tomonidan Yevropa Ittifoqi konsepsiyasiga to‘liq moslashtirilgan holda qabul qilingan. Gruziyaning budget muassasalarida ichki audit xizmatini tashkil etish majburiyati Davlat ichki moliyaviy nazorati to‘g‘risidagi qonun bilan belgilandi. Ushbu qonunda, ichki audit bo‘limlari Gruziyaning barcha vazirliklari, munitsipalitetlari va avtonom respublikalarida tashkil etilishi belgilangan.

Gruziyada ichki audit xizmatlari o‘z faoliyatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- «tashkilot duch keladigan xavflarni boshqarish sifatini baholash;
- moliyaviy boshqaruv va nazorat tizimining muvofiqligi va samaradorligini baholash;
- tashkilot faoliyatining Gruziya qonunchiligiga, amaldagi qoidalarga muvofiqligini baholash;
- muassasa faoliyatida mablag‘larni iqtisod qilinishi, natijadorligi va samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- moliyaviy va boshqa ma’lumotlarning ishonchliligi, to‘g‘riliqi va to‘liqligini baholash;
- tashkilotning aktivlari, boshqa resurslari va ma’lumotlarini himoya qilish uchun tegishli xavfsizlik choralarini mavjudligini baholash.

Gruziyada ichki auditorlari o‘z faoliyatida Ichki audit standartlari, Ichki audit bo‘yicha qo‘llanma, Axloq kodeksi, tizimli auditni o‘tkazish qo‘llanmasiga asosan amalga oshiradi.

Davlat moliyaviy nazorati tizimining klassik namunasini yaratgan Fransiya davlatining bugungi kundagi amaliyotini o‘rganish mavzuni o‘rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

Fransiya davlat sektorida moliyaviy tekshirish funksiyasi Fransiya Moliya, iqtisodiyot va sanoat hamda raqamli suverinitet vazirligining Bosh moliyaviy nazorat xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

Fransiya huqumatining 2006 yil 4-oktabrdagi 2006-1213-sun qaroriga muvofiq Bosh moliyaviy nazorat xizmati faoliyatining maqsadi umumiyligi nazorat, audit, tahlil, maslahat va baholash missiyalarini amalga oshirishdir. Xizmat faoliyati ma’muriy, iqtisodiy va moliyaviy masalalarini qamrab oladi. Bundan tashqari, u Bosh vazir va boshqa hukumat institutlari, fondlar, assotsiatsiyalar, xorijiy va xalqaro institutlar va Yevropa Ittifoqi tomonidan tayinlangan missiyalarini bajarishi mumkin.

Bosh moliyaviy nazorat xizmati uchta asosiy faoliyatni amalga oshiradi:

- «nazorat-taftish;
- baholash va maslahat;
- ma’muriyat, qo‘mitalar, ishchi guruqlar va malakali mutaxassislar shuningdek, xalqaro Valyuta jamg‘armasi va Jahon banki kabi tashkilotlarga yordam ko‘rsatish».

Shu bilan birga, xizmat ichki jarayonlarini va uning ish sifati hamda ish usullarini yaxshilashga qaratilgan ichki vazifalarga e’tibor qaratadi.

Fransiyada davlat sektorida tashqi audit funksiyasi Fransiya hisob palatasi tomonidan amalga oshiriladi. Fransiya Hisob palatasi o‘zini-o‘zi boshqarish tuzilmasi bo‘lib, o‘z faoliyatida hukumatdan mustaqildir.

Fransiya Hisob palatasi «mablag‘lardan to‘g‘ri, natijador va samarador foydalanishni ta’minlash yuzasidan nazorat qilish, baholash va sertifikatlash funksiyalarini bajaradi. Hisob palatasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

buxgalteriya hisoblarini baholash;  
davlat mablag‘laridan foydalanishning qonuniylini tekshirish;  
davlat siyosatini baholash;  
sertifikatlash;  
Parlament va Hukumatga audit va davlat maslahati orqali yordam berish».

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Маматов, Б., & Маматова, С. (2023). ИҚТИСОДИЁТДАГИ ДАВЛАТ ИШТИРОКИНИ ҚИСҚАРТИРИШ ВА ХУСУСИЙЛАШТИРИШ ТЕНДЕНЦИЯСИ ҲОЛАТИ ТАҲЛИЛИ. *THE INNOVATION ECONOMY*, 1(02), 20-28.
  - 2 Элмирзаев, С., & Маматов, Б. (2023). АКЦИЯЛАРНИ ОММАВИЙ ЖОЙЛАШТИРИШ АМАЛИЁТЛАРИНИ САМАРАЛИ ТАШКИЛ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ. *Iqtisodiyot va ta’lim*, 24(3), 283-288.
  3. Маматов, Б. (2022). ЎЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЁТИГА ТЎҒРИДАН-ТЎҒРИ ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯ ВА ХОРИЖИЙ КРЕДИТЛАР ЖАЛБ ҚИЛИШ САМАРАЖОРЛИГИ ТАҲЛИЛИ. *Science and innovation*, 1(A8), 170-175.
  4. Маматов, Б. Ш. Ў. (2022). ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ УСТАВ КАПИТАЛИДАГИ ДАВЛАТ УЛУШИННИНГ ИНВЕСТИЦИОН ЖОЗИБАДОРЛИККА ТАЪСИРИ. *Инновацион технологиялар*, 1(4 (48)), 109-112.
- ДОМУЛАДЖАНОВ, И. Х., ДЕХКАНОВА, Н. Н., & ЖАМОЛИДДИНОВА, Н. Б. К. ВОЗДЕЙСТВИЕ ЗАГРЯЗНЕНИЯ АТМОСФЕРЫ НА ЗДОРОВЬЕ НАСЕЛЕНИЯ.
- Дехканова, Н. Н. (2021). ВНЕДРЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТРАНСФОРМАЦИЙ В ВЫСШИЕ УЧЕБНЫЕ ЗАВЕДЕНИЯ. Научный редактор, 29.
- Исмаилов, М. Ю., & Дехканова, Н. Н. (2023). Получение и очистка нафтеновых кислот синтетическим методом. *Universum: химия и биология*, (2-1 (104)), 54-58.
- Усмонов, А. Х., & Дехканова, Н. Н. ЗАКОНОМЕРНОСТИ АДСОРБЦИИ СЕРОВОДОРОДА В ЦЕОЛИТЕ NaX. ЖАРЧЫСЫ, 279.
- Дехканов, Т., Оринов, Ф., Рахманов, З., & Дехканова, Н. (2014). Морфология апудоцитов и некоторые вопросы патогенеза экспериментальных апудопатий. Журнал вестник врача, 1(3), 91-93.
- Абдурахмонов, Э. Б., Дехканова, Н. Н., Раҳматқариева, Ф. Г., Коҳаров, М., & Жамолиддинова, Н. Б. К. (2022). КАЛОРИМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ АДСОРБЦИИ МЕТИЛМЕРКАПТАНА В ЦЕОЛИТЕ NAX. *Universum: химия и биология*, (11-2 (101)), 22-28.
- Дехканова, Н., Раҳматқариева, Ф., & Жамолиддинова, Н. (2022). ТЕРМОДИНАМИКА АДСОРБЦИИ СЕРОВОДОРОДА НА ЦЕОЛИТЕ NaX. *Farg'onadavlat universiteti*, (3), 51-51.